

Buxoro viloyatida 2019 yil yanvar–aprel oylarida qurilish ishlari

2019 yilning yanvar–aprel oylarida o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1145,6 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘shish surati 115,6 foizni tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlarning turi bo‘yicha qurilish ishlari tarkibi, jamiga nisbatan foizda



Yirik pudrat tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar




Norasmiy sektor

Yirik pudrat tashkilotlari
–189,8 mlrd. so‘m

Kichik korxonalar va mik.
–724,4 mlrd so‘m

Norasmiy sektor
–231,4 mlrd so‘m

Qurilish ishlari, foizlarda



Joriy yilning yanvar-mart oylarida Buxoro viloyatida o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1145,6 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish surati 115,6 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 189,8 mlrd. so'mni, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 724,4 mlrd. so'mni hamda bo'yicha 231,4 mlrd. so'mni tashkil qildi.


Mos ravishda yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 117,4% ni, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 106,1% ni va norasmiy sektor bo'yicha o'sish sur'ati 159,9 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan jami qurilish ishlarining hajmida yirik korxonalar va tashkilotlarning ulushi 0,2 foizga kamaygan, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi 6,1 foizga oshgan, norasmiy sektor ulushi 5,9 foizga kamaygan.

Umumiy hajmda qurilish ishlarining turi bo'yicha taqsimoti


2019 yil yanvar-aprel

(jamiga nisbatan foizda)



2018 yil yanvar-aprel

(jamiga nisbatan foizda)



Qurilish ishlarning umumiy hajmidan 59,4 foizi yoki 680,8 mlrd. so‘m - yangi qurilish, rekonstruksiya, kentgaytirish va texnik qayta qurollantirishga (o‘tgan yilning mos davrida 55,9 foiz yoki 526,1 mlrd. so‘m), 40,6 foizi yoki 464,8 mlrd. so‘m (o‘tgan yilning mos davrida 44,1 foizi yoki 414,7 mlrd. so‘m) - kapital ta'mirlash, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlariga to‘g‘ri keladi.


Kichik korxonalar va mikrofirmalar ijtimoiy soha ob'yektlarini (maktablar, kollejlari, sport hamda sog‘liqni saqlash ob'yektlari va boshqalar) qurishda, namunali hamda arzonlashtirilgan va sotish uchun mo‘ljallangan turar joylarni qurishda, avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta'mirlash ishlarida qatnashmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi **mlrd. so'mda**

Bino va ishootlarni qurilishi	754.5
Fuqarolik ob'yektlarini qurilishi	201.7
Ixtisoslashtirilgan qurilish	189.3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining umumiy hajmga nisbatan ulushi, foizda




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bino va ishootlarni qurilishiga 754,5 mlrd. so'm, qurilish ishlarining umumiy hajmga ulushi 65,9 foizni (o'tgan yilning mos davrida 402,0 mlrd. so'm, umumiy hajmga nisbatan ulushi 60,6 foiz) fuqarolik ob'yektlarini qurilishiga 201,7 mlrd. so'm, umumiy hajmga nisbatan ulushi 17,6 foizni (o'tgan yilning mos davrida 90,6 mlrd. so'm, umumiy hajmga nisbatan ulushi 13,7 foiz) va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi 189,3 mlrd. so'm, umumiy hajmga nisbatan ulushi 16,5 foizni (o'tgan yilning mos davrida 170,3 mlrd. so'm, umumiy hajmga nisbatan ulushi 25,7 foiz) tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 5,3 % punktga ko'paydi.

Fuqarolik qurilishi ob'yektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,9 foizga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 9,2% punktga kamaydi.

2019 yilning yanvar-aprel oylarida mulkchilik shakli bo'yicha qurilish ishlari hajmi



Nodavlat mulkchiligi bilan qurilish korxonalarini tomonidan 1064,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 113,4 foizni tashkil qilgan. Umumiy hajmga nisbatan ulushi 92,9 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 foizga kamaygan.


Davlat mulkchilik shakli tomonidan 81,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 154,5 foizni tashkil qilgan. Umumiy hajmga nisbatan ulushi 7,1 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 foizga ko'paygan.

**2019 yil yanvar-aprel oylarida hududlar kesimida
qurilish ishlari, mlrd so'mda**

	2019 yil yanvar- aprel	2018 yil yanvar- aprel	O'sish sur'ati, %da
Jami	1145,6	940,8	115,6
Buxoro sh	274,5	208,8	124,8
Kogon sh	32,4	30,8	100,1
Olot	95,7	74,7	121,7
Buxoro	88,5	56,4	148,9
Vobkent	36,7	34,2	102,1
G'ijduvon	137,1	129,8	100,1
Kogon	66,7	61,8	102,8
Qorako'l	45,0	36,2	118,0
Qorovulbozor	77,9	96,2	77,3
Peshko'	59,9	35,3	160,4
Romitan	98,2	59,5	157,1
Jondor	69,3	75,6	86,9
Shofirkon	63,6	41,3	145,9

Viloyatda qurilish ishlari hajmida eng yuqori o'rinni Buxoro shahri egalladi. Bajirilgan qurilish ishlari hajmi 274,5 mlrd. so'm, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 124,8 %ni tashkil qildi. Keyingi o'rinni G'ijduvon tumani egalladi. Mazkur tumanda qurilish ishlari 137,1 mlrd. so'mni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,1 %ni tashkil qildi.

2019 yilning yanvar-aprel oylarida hududlar kesimida qurilish ishlarining ulushi, foizda



Qurilish ishlari umumiy hajmida 24,0 % ulush bilan Buxoro shahri yetakchilikni egalladi. Keyingi pog'onani 12,0 % ulush bilan G'ijduvon tumani egalladi. Uchinchi o'rinni 8,6 % ulush bilan Romitan tumani egalladi.